



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I

17.01.2025

4-um-son

Hay‘at qarori ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 25-dekabrda 21/24-son Hay‘at majlisi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 12-iyulda 147-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Navoiy viloyat adliya boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq,

BUYURAMAN:

1. Navoiy viloyat adliya boshqarmasi Hay‘atining 2025-yil 17-yanvarda 1/25-son qaroriga asosan adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejalari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. Rejalashtirish va samaradorlikni baholash bo‘limi (Sh.Abduraxmonov) Hay‘at qarori bilan tasdiqlangan ish rejani boshqarmaning mas‘ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari (*yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari*) va boshqarma huzuridagi idoraviy notarial va FHDY arxivlariga ijro uchun yuborsin.

3. Boshqarma mas‘ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari (*yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari*) hamda boshqarma huzuridagi idoraviy notarial va FHDY arxivlari xodimlari Hay‘at qarori bilan tasdiqlangan ish rejada belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlasin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan belgilangan muddatlarda axborot taqdim etib borsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Asos: Navoiy viloyat adliya boshqarmasi Hay‘atining 2025-yil 17-yanvarda 1/25-son qarori.

Boshqarma boshlig'i



U.ABDULLAYEV

Navoiy viloyati



NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI HAY'ATI MAJLISINING BAYONNOMASI

2024-yil 17-yanvar

1/25-son

Navoiy shahri

Raislik qildi:

U.Abdullayev - boshqarma boshlig'i

Hay'at a'zolari:

Z.Farmanov, D.Xusanov, Sh.Abduraxmonov,
Sh.Ravshanov.

Qatnashdilar:

Adliya boshqarmasining sho'ba boshliqlari va mas'ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo'limlari boshliqlari va xodimlari, tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari boshliqlari va xodimlari, davlat xizmatlari markazlari direktorlari va xodimlari, FXDY mudir(a)lari va xodimlari.

Hay'at kotibi:

M.Raxmonov.

K u n t a r t i b i:

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasi muhokamasi to'g'risida.

(Z.Farmanov, D.Xusanov, Sh.Abduraxmonov, U.Xatamov, F.Alxamov)

Majlisning borishi:

Kun tartibidagi masala hay'at majlisida atroflicha muhokama qilindi.

Ish reja loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bunga ko'ra, Navoiy viloyat adliya boshqarmasining hamda tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan vazifalarni muddatida ijro eta olishligini, shuningdek ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Navoiy viloyat adliya boshqarmasi hay'ati

QAROR QILADI:

1. Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq, tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishlicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari va Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho'basi boshlig'i zimmlariga yuklansin.

Boshqarma boshlig'i



U. Abdullayev

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Navoiy viloyat adliya boshqarmasi va uning tizimidagi idoralar tomonidan 2024-yil va 2025-yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	yanvar-fevral, aprel-may	Sh.Abduraxmonov, boshqarma tarkibiy bo'linmalari rahbarlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at majlisi har chorakda o'tkazilib, unda asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Boshqarma va uning tizimidagi idoralar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf etish.	1
3. (6)	Adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellari ishlab chiqarayotgan elektr energiyasini doimiy (onlayn) ravishda monitoring qilish uchun elektron tizim o'rnatish.	may	A.Kobilov, A.Qulmurodov	Adliya organlari va muassasalari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellaridan olinayotgan elektr energiyasi miqdorini nazoratini doimiy ravishda amalga oshirishda qiyinchiliklar vujudga kelmoqda va ortiqcha vaqt talab qilinmoqda.	Quyosh panellaridan olinadigan elektr energiyasining doimiy monitoringni yo'lga qo'yish.	4

II. HUQUQNI QO‘LLASH AMALIYOTINI O‘RGANISH VA METODIK TA‘MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA

4. (16)	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o‘rganish o‘tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo‘llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlari; ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati; tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ‘ibotni amalga	yanvar-fevral	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev	Amaldagi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan, o‘quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Oliy ta’lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o‘zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlar samarali yo‘lga qo‘yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta’lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg‘ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi.	Talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy baza takomillashtiriladi hamda o‘quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish.	3
----------------------------------	---	----------------------	--	---	--	----------

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	oshirilishini o'rganish. Boshqarmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
5. (19)	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining huquqlari kafolatlarini oshirish maqsadida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Shuningdek, aksiya doirasida nogironligi va kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholining ehtiyojmand toifalarini tibbiy xizmatlardan foydalanishi holatlarini o'rganish. Aksiya natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	fevral-mart	M.Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmasligi kabi va boshqa holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanadi. Nogironligi yoki kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
				uchun order berish hamda aholi ehtiyojmand toifalarining tibbiy xizmatlardan foydalanishi, masalasida murojaatlar ortib bormoqda. Shuningdek, order berish jarayoni uzoq vaqt olayotganligi sababli fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.		
6. (21)	Navoiy viloyat sport boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.	mart-aprel	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	Boshqarmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
7. (23)	Aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o'rganish orqali, har bir fuqaroga individual yondashuvni joriy etishga qaratilgan "Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish.	may	S.Xusanov, M.Umerzakov, A.Kobilov, A.Qulmurodov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	"Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish orqali muammolarni joyiga chiqqan holda o'rganib, har bir fuqaroga maksimal darajada individual yondashgan holda huquqiy maslahat berish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish zarur	Aholining huquqiy muammolarini maksimal darajada joylardagi mahallalarning o'zida hal etish. Fuqarolarga huquqiy tushuntirish berish orqali targ'ibotni amalga oshirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
8. (25)	Navoiy viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Boshqarmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda	may-iyun	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
9. (27)	Navoiy viloyat bojxona boshqarmasi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Boshqarmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjiniring qilish	iyun	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev	Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Bojxona ma'muriyatchiligi va bojxona imtiyozlarini qo'llash bilan bog'liq ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda.	Bojxona ma'muriyatchiligi takomillashtirish va bojxona imtiyozlarini qo'llash bo'yicha yagona huquqni qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	(BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
10. (28)	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida "Xodimlarning mehnat huquqi kafolati" nomli "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Aksiya natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	iyun	M.Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlanmayotganligi va boshqa kamchiliklar bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanadi.	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3
11. (29)	Respublikada suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq topshiriqlar ijrosini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda Adliya vazirligiga	iyun	A.Tuxtayev	"Ijro.gov.uz" tizimi orqali ayrim topshiriqlar ijrosi ta'minlanmaganligi, mablag' yetishmovchiligi hamda mas'ul ijrochilarning bu borada ishlarni	Mazkur soha bo'yicha hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			to'g'ri tashkil etmaganligi aniqlandi. Shu bois, ushbu sohani tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati mavjud.	ta'minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va takliflar tayyorlanadi.	

III. HUQUQIY XIZMATLARI VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA

12.	Quyidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning faoliyatida notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tekshirish: Karmana tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius J.Mahmudov; Karmana tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Sharopov; Konimex tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M.Xaytova; Uchquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius E.Muxiddinov; Zarafshon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Sharibova; Navbahor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Nurullayev;	yanvar fevral mart aprel may iyun	F.Alxamov, O.Djurayeva	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan "Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 12-bandiga asosan notariuslar ish faoliyatida rejali tekshirish uch yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Mazkur xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyati oxirgi uch yilda tekshirilmagan.	Notariuslar tomonidan amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning qonuniyligini o'rganish. O'rganish natijalari yuzasidan belgilangan ta'sir choralarini ko'rish va aholiga sifatli notarial xizmatlarning ko'rsatilishini ta'minlash.	3
-----	---	---	---------------------------	--	--	---

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
13. (31)	“Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan talabnoma yuborish holatini kameral tekshirish orqali o‘rganish. Natijasi bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish.	fevral	F.Alxamov	Notariuslar tomonidan “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilangan tartibda notarial harakatga oid ma’lumotlarni vakolatli organga yuborilishi talablariga rioya qilinishi ahvolini tahlil qilish.	Notariuslar tomonidan notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o‘rganish.	3
14.	Navoiy viloyatida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan diniy tashkilotlarning 2024-yildagi faoliyati yuzasidan hisobotlarini tahlil qilish. Natijasiga ko‘ra tahliliy ma’lumot tayyorlash.	fevral- mart	M.Mamatqulov	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati haqidagi hisobotlarni qabul qilish va tahlil qilish adliya organlarining vazifalaridan biri etib belgilangan.	Navoiy viloyatida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko‘rish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	3
15.	Navoiy viloyatida faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlarga 2023-2024-yillarda kelib tushgan mablag‘larini maqsadli sarflanganligi holatlarini o‘rganish yuzasidan monitoring o‘tkazish. Natijasiga ko‘ra tahliliy ma’lumot tayyorlash.	mart	M.Mamatqulov	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq adliya organlari nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring olib borish vakolati	Navoiy viloyatida faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlarga kelib tushayotgan mablag‘larning qonun hujjatlariga va Diniy tashkilotning ta’sis hujjatlarga muvofiq sarflanganlik holatlarini o‘rganish. Diniy tashkilotlar tomonidan moliyaviy qonunbuzilish	1

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
				belgilangan.	holatlarini oldini olish.	
16.	“Mehr 2020 Navoiy” xayriya jamoat fondi faoliyatini o'rganish. Natijasi bo'yicha ma'lumotnoma tayyorlash.	mart-aprel	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida”gi nizomda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini o'rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi uch yilda o'rganish o'tkazilmagan.	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o'rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	3
17.	Navoiy shahridagi “Navoiy advokatlari” advokatlik firmasi, Navoiy shahridagi “Miranshox adolat” advokatlik byurosi Xatirchi tumanidagi “Xatirchi adolat” advokatlik firmasi, Konimex tumanidagi “Navoiy Himoya” advokatlik byurosi tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ahvolini o'rganish.	aprel-may	F.Alxamov, O.Djurayeva	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomning 40-bandida adliya organi advokat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilishi belgilangan. Mazkur advokatlik tuzilmalari faoliyati oxirgi uch yilda o'rganilmagan.	Aholiga sifatli huquqiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash.	1
18. (33)	O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi Navoiy viloyat hududiy bo'limi, O'zbekiston nogironlar jamiyati Navoiy viloyat hududiy bo'limi, O'zbekiston karlar jamiyati Navoiy viloyati hududiy bo'limi hamda	mart-iyun	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o'rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Navoiy viloyat bo'limi faoliyatini o'rganish. Natijasi bo'yicha ma'lumotnoma tayyorlash.			o'rganish tartibi to'g'risida"gi nizomda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini o'rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi uch yilda o'rganish o'tkazilmagan.	aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	
IV. DAVLAT XIZMATLARI VA FHDY SOHASIDA						
19.	2023-2024-yillar davomida tug'ilganlik faktini belgilash haqida ko'rilgan ishlar yuzasidan viloyatdagi sud amaliyotini tahlil qilish. Natijasiga ko'ra, amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	yanvar-fevral	U.Xatamov, M.Abdukarimova, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Sudlarda otalikni belgilash bo'yicha ishlarda turlicha amaliyot shakllangan. Masalan, ayrim holatlarda sudlar tomonidan odam DNKsi sudbiologik ekspertizasi tayinlanmasdan tug'ilganlik fakti belgilangan bo'lsa, xuddi shu kabi boshqa barcha holatlarda ekspertiza xulolasi asosida bunday faktlar belgilanmoqda.	Tug'ilishi qayd etilmagan bolalarning tug'ilishini qayd etish choralari ko'rish.	3
20.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatish holatini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish va ma'lumotnoma tayyorlash.	fevral	U.Xatamov, M.Abdukarimova	Ayrim hollarda markaz xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi sababli o'rganish o'tkazish belgilangan.	Markaz xodimlari tomonidan Reglament talabiga rioya qilinishi holatini o'rganish.	3
21.	Agrosubsidiya.uz elektron tizimi orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari bo'yicha o'rganish o'tkazish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish va ma'lumotnoma	fevral-mart	J.Muhammadiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	agrosubsidiya.uz elektron tizimi orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari bo'yicha oxirgi 3 yilda o'rganish o'tkazilmagan	agrosubsidiya.uz elektron tizimi orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'rsatilishida qonuniylikni ta'minlash.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	tayyorlash.					
22.	“O‘zarxiv” agentligining hududiy davlat arxivlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish ahvolini tahlil qilish. Natijasi bo‘yicha tegishli ta’sir choralari ko‘rish va ma’lumotnoma tayyorlash.	mart	U.Xatamov, J.Muhammadiyev, M.Abdukarimova, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Hozirgi kunda “O‘zarxiv” agentligining hududiy davlat arxivlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ma’lumotnomalar berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishni asossiz rad etish holatlari ko‘plab uchramoqda.	Mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash hamda huquqni qo‘llash amaliyotidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	2
23	FHDY bo‘limlari tomonidan dalolatnoma yozuvlarini tiklashda huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish. Natijasi bo‘yicha tegishli ta’sir choralari ko‘rish va ma’lumotnoma tayyorlash.	may	U.Xatamov, M.Abdukarimova	Mazkur sohada FHDY bo‘limlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan umumlashtirish o‘tkazilmagan.	Mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash hamda huquqni qo‘llash amaliyotidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	3
V. YURIDIK XIZMAT VA INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
24.	Yuridik xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlarning “E-huquqshunos” tizimi bilan ishlovchi mas’ul xodimlarining qonunchilik normalari va tizim bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida o‘quv seminarlar o‘tkazish.	fevral	A.Saidov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Yuridik xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlarning “E-huquqshunos” tizimi bilan ishlovchi mas’ul xodimlarining huquqiy ko‘nikmasi yetarli bo‘lmaganligi sababli hujjat loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda	Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlarning “E-huquqshunos” tizimi bilan ishlovchi mas’ul xodimlariga qonunchilik normalarini va tizim bilan ishlash ko‘nikmasini o‘quv seminarlar o‘tkazish yo‘li orqali shakllantirish	3
25. (55)	Navoiy viloyati hududida joylashgan yirik savdo majmualarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning	aprel	A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Navoiy viloyatidagi yirik savdo majmualarida ayrim tovarlarning kontrafakt nusxalari	Yirik savdo majmualarini kontfaktsiz hududga aylantirish	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	kontrafaktlik darajasini o'rganish hamda ushbu hududlarni kontrafaktsiz hududga aylantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.			uchramoqda. Shunga ko'ra, yirik savdo obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazish orqali ularni "Kontrafaktsiz hudud"ga aylantirish bo'yicha amaliy yordam beriladi.		
26. (57)	Hunarmandchilik buyumlarining dizaynini intellektual mulk obyekti sifatida ro'yxatga olish, baholash, sug'urtalash, tashkilot balansida aks ettirish va uni sotish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish istiqbollarini o'rganish, natijasi yuzasidan Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	may	A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Hunarmandlar tomonidan o'z buyumlarini intellektual mulk sifatida muhofaza qilish sustligi hamda savdo nuqtalarida hunarmandchilik buyumlari faqat suvenir sifatida past baholarda sotilayotganligi aniqlandi.	Ro'yxatdan o'tkazilgan hunarmandchilik buyumlari sonini oshirish va bunday buyumlarni qo'shimcha qiymat bilan sotish imkoniyatini yaratish.	2
VI. HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA						
27.	"Adliya aralashgach", "Adliya — bir oy davomida" va "Bir murojaat izidan" nomli lavhalar, reportajlar, videoroliklar tayyorlash va tarqatish.	fevral-iyun	S.Xusanov, D.Kattayeva, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Aholining adliya organlari faoliyati haqida ma'lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning adliya organlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan huquqiy yordamdan to'laqonli foydalanmasligiga olib kelmoqda	Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida targ'ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish hamda shaxslarning huquqlarini himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish.	4
28.	"Huquqiy mahalla" sifatida belgilangan mahallalarda huquqiy targ'ibot kunlarini o'tkazish.	iyun	S.Xusanov, D.Kattayeva, tuman (shahar) adliya bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son "Ma'muriy islohotlar doirasida	Mahalliy aholini huquqiy bilimini tizimli va doimiy ravishda oshirish borish. Ularga huquqiy yordam	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
				adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to’g’risida”gi Farmoni	ko’rsatish. Shuningdek, “Huquqiy mahalla” targ’iboti doirasida uyma-uy yurish orqali huquqiy muammolarni aniqlash.	
29.	Viloyat hokimligi, vazirlik va idoralarning viloyat tuzilmalarining huquqiy targ’ibot tadbirlariga oid faoliyatini monitoring qilish.	iyun	S.Xusanov, D.Kattayeva	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to’g’risida” PF-80-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish.	Respublika darajasidagi vazirlik va idoralar tomonidan o‘z faoliyat yo‘nalishiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan huquqiy targ’ibot tadbirlarini monitoring qilish va baholash bo‘yicha vazirlikning https://htb.huquqiportal.uz platformasi negizida “Yagona huquqiy axborot almashish tizimi” orqali har olti oyda monitoring qilish va baholash natijalari yuzasidan hududiy adliya boshqarmalari va tuman (shahar) adliya bo‘limlari tomonidan tegishli Xalq deputatlari viloyat yoki tuman (shahar) Kengashlariga axborot kiritib borishini ta’minlash.	4

Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo'nalishlari va mezonlari jadvali

Yo'nalish raqami	Baholanayotgan yo'nalish nomi	Yo'nalishning baholash mezonlari	Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar	Mezon bo'yicha maksimal bali	Yo'nalish bali
1.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tahlil qilish	Faoliyati baholanganligi	<i>Adliya organlari soni bilan baholangan Adliya organlar soni</i>	50	100
		Tizimli tahlil amalga oshirilganligi	<i>tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
2.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma'lumot va boshqa takliflar	Taklifning asoslanganligi	<i>loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari</i>	25	100
		Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi</i>	25	
		Taklif bo'yicha asoslantirishda taklif amaliyotga kiritilgandan so'ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija (foiz, miqdor va boshqalarda) nazarda tutilganligi</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
3.	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o'rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta'sir choralari ko'rish	O'rganish qamrovi	<i>savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo'yicha asoslar soni</i>	20	100
		Qonunbuzilishning asoslanganligi	<i>qonun buzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni</i>	20	
		Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi	<i>bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni</i>	20	
		Javobgarlik choralari qo'llanilishi	<i>Javobgarlik tortilishi lozim bo'lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni</i>	20	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	20	
4.	Ko'rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi	Ko'rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi	<i>Normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko'rsatkichlar bilan bajarilgan ko'rsatkichlar miqdori</i>	75	100
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	

Izoh: * Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar adliya boshqarmasining mavjud bino, moliyaviy mablag'lari va moddiy-teknik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.

**Tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI**

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1. (1)	Tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash.	yanvar-fevral, aprel-may	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at majlisi har chorakda o'tkazilib, unda asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Boshqarma va uning tizimidagi idoralar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf etish.	1
II. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA						
2. (5)	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining huquqlari kafolatlarini oshirish maqsadida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Shuningdek, aksiya doirasida nogironligi va kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholining ehtiyojmand toifalarini tibbiy xizmatlardan foydalanishi holatlarini o'rganish. Aksiya natijasi bo'yicha boshqarma	fevral-mart	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmasligi kabi va boshqa holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	rahbariyatiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			ta'minlanadi. Nogironligi yoki kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholi ehtiyojmand toifalarining tibbiy xizmatlardan foydalanishi, masalasida murojaatlar ortib bormoqda. Shuningdek, order berish jarayoni uzoq vaqt olayotganligi sababli fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.	qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-yanvardagi "Olis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4940-sonli qarori talablariga rioya etilishi holatini tahlil qilish	fevral-mart	Zarafshon shahar, Xatirchi tuman, Uchquduq tuman, Hurota tuman, Konimex tuman, Tomdi tuman, adliya bo'limlari	Olis hududlaridagi budjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga qarorda ko'rsatilgan ustamalar hamda ijarada yashaganligi uchun ijara to'lovlari to'lanmasdan kelinmoqda.	Tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash, ularni o'rganib chiqish va kelgusida ushbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	3
4.	Kadastr Palatasining hududiy tuman shahar filiallari tomonidan ko'chmas mulklarni kadastr bazasiga kiritishda "O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya qilinishi holatini tahlil qilish	mart-aprel	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ularga tegishli bo'lgan ko'chmas mulklarni kadastr bazasiga ikki martalab kiritilishi, yoki noturar joylar turar joy, turar joylar noturar joy sifatida takroran kiritilganligi sababli ularning mulk daxlsizligi buzilayorganligi bilan bog'liq murojaatlar ko'paymoqda. .	Bo'limlar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
5. (6)	Tuman sport bo'limlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Bo'linmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjiniring qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni	mart-aprel	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Bo'lim faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Bo'lim faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda adliya boshqarmasiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
6. (7)	Aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o'rganish orqali, har bir fuqaroga individual yondashuvni joriy etishga qaratilgan "Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish.	may	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	"Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish orqali muammolarni joyiga chiqqan holda o'rganib, har bir fuqaroga maksimal darajada individual yondashgan holda huquqiy maslahat berish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish zarur	Aholining huquqiy muammolarini maksimal darajada joylardagi mahallalarning o'zida hal etish. Fuqarolarga huquqiy tushuntirish berish orqali targ'ibotni amalga oshirish.	3
7. (8)	Tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish	may-iyun	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Bo'limlar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Bo'limlar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Bo'linmaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda adliya boshqarmasiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
8. (10)	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida "Xodimlarning mehnat huquqi kafolati" nomli "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish. Aksiya natijasi bo'yicha adliya boshqarmasiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	iyun	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlanmayotganligi va boshqa kamchiliklar bo'yicha murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanadi.	Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	3
III. DAVLAT XIZMATLARI VA FHDY SOHASIDA						
9. (23)	Agrosubsidiya.uz elektron tizim orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari bo'yicha o'rganish o'tkazish. Natijasi yuzasidan adliya boshqarmasiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish..	fevral-mart	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	agrosubsidiya.uz elektron tizim orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari bo'yicha oxirgi 3 yilda o'rganish o'tkazilmagan	agrosubsidiya.uz elektron tizim orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'rsatilishida qonuniylikni ta'minlash.	3
10. (22)	"O'zarxiv" agentligining hududiy davlat arxivlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish ahvolini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish va ma'lumotnoma tayyorlash.	mart	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Hozirgi kunda "O'zarxiv" agentligining hududiy davlat arxivlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ma'lumotnomalar berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishni asossiz rad etish holatlari ko'plab uchramoqda.	Markaz xodimlari tomonidan Reglament talablariga rioya qilinishi holatini o'rganish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
IV. YURIDIK XIZMATLAR VA INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA						
11. (24)	Yuridik xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarning "E-huquqshunos" tizimi bilan ishlovchi mas'ul xodimlarining qonunchilik normalari va tizim bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida o'quv seminarlar o'tkazish.	fevral	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Yuridik xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarning "E-huquqshunos" tizimi bilan ishlovchi mas'ul xodimlarining huquqiy ko'nikmasi yetarli bo'lmaganligi sababli hujjat loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan yuridik xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarning "E-huquqshunos" tizimi bilan ishlovchi mas'ul xodimlariga qonunchilik normalarini va tizim bilan ishlash ko'nikmasini o'quv seminarlar o'tkazish yo'li orqali shakllantirish	3
12. (25)	Navoiy viloyati hududida joylashgan yirik savdo majmualarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning kontrafaktlik darajasini o'rganish hamda ushbu hududlarni kontrafaktsiz hududga aylantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.	aprel	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Navoiy viloyatidagi yirik savdo majmularida ayrim tovarlarning kontrafakt nusxalari uchramoqda. Shunga ko'ra, yirik savdo obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazish orqali ularni "Kontrafaktsiz hudud"ga aylantirish bo'yicha amaliy yordam beriladi.	Yirik savdo majmualarini kontrafaktsiz hududga aylantirish	3
13. (26)	Hunarmandchilik buyumlarining dizaynini intellektual mulk obyekti sifatida ro'yxatga olish, baholash, sug'urtalash, tashkilot balansida aks ettirish va uni sotish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish istiqbollari o'rganish, natijasi yuzasidan adliya	may	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Hunarmandlar tomonidan o'z buyumlarini intellektual mulk sifatida muhofaza qilish sustligi hamda savdo nuqtalarida hunarmandchilik buyumlari faqat suvenir sifatida past baholarda sotilayotganligi aniqlandi.	Ro'yxatdan o'tkazilgan hunarmandchilik buyumlari sonini oshirish va bunday buyumlarni qo'shimcha qiymat bilan sotish imkoniyatini yaratish.	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	boshqarmasiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
VI. HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA						
14. (27).	“Adliya aralashgach”, “Adliya — bir oy davomida” va “Bir murojaat izidan” nomli lavhalar, reportajlar, videoroliklar tayyorlash va tarqatish.	fevral-iyun	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Aholining adliya organlari faoliyati haqida ma'lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning adliya organlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan huquqiy yordamdan to'laqonli foydalanmasligiga olib kelmoqda	Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida targ'ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish hamda shaxslarning huquqlarini himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish.	4
15. (28).	“Huquqiy mahalla” sifatida belgilangan mahallalarda huquqiy targ'ibot kunlarini o'tkazish.	iyun	Tuman shahar) adliya bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son “Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida”gi Farmoni	Mahalliy aholini huquqiy bilimini tizimli va doimiy ravishda oshirish borish. Ularga huquqiy yordam ko'rsatish. Shuningdek, “Huquqiy mahalla” targ'iboti doirasida uyma-uy yurish orqali huquqiy muammolarni aniqlash.	4